

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA MAHKUMLARNING HUQUQLARINI  
TA'MINLANISH ASOSLARI**

**Izzatilla Nasirov**

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jazoni ijro etish faoliyati kafedrasini  
o`qituvchisi, kapitan,*

**Zebiniso Qarshibayeva**

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta`lim I-o`quv kursi  
134-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqiy holati, ularning qonuniy manfaat va erkinliklarini ta`minlanishi to`grisida fikr yuritilib, ushbu sohada qonunchilikka ayrim qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritish haqida takliflar berilgan. O`zbekiston jinoyat-ijroiya qonunchiligi hamda halqaro huquqiy hujjatlarga ko`ra qiyosiy huquqiy tahlil o`tkazilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Jinoyat ijroiya qonunchiligi, huquqlar, mahkumlar, yuridik yordam olish, ta`lim, tibbiyat, xalqaro huquq normalari, huquqlarning muhofaza qilinishi.*

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari bo`yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka va huquqni qo`llash amaliyotiga tizimli va bosqichma-bosqich implementatsiya qilish jarayonlari davom etmoqda.

Jinoyat-ijroiya va postpenitensiar tizimni tubdan isloh etish, bu boradagi milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar bilan uyg`unlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda [1].

Hozirgi paytda O`zbekiston inson huquqlari sohasida 80 dan ortiq xalqaro hujjatga, shu jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta Fakultativ protokoliga qo`shilgan. Bu xalqaro hujjatlarning bajarilishi yuzasidan milliy ma`ruzalar BMTning Inson huquqlari bo`yicha kengashi hamda shartnomaviy qo`mitalariga doimiy ravishda taqdim etib borilmoqda.

O`zbekistonda mahkularning huquq, erkinlik va boshqa qonuniy manfaatlarining ta`minlanishiga xizmat qiladigan bir qator, jumladan, O`zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 iyundagi “O`zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkularning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta`minlashga qaratilgan o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi O`RQ-625-son qonuni [2], O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagagi “Jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-6196-son Farmoni [3], 2017 yil 11 avgustdagagi “Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog`liq bo`lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3200-

son [4], 2018 yil 7 noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4006сон [5], 2019 yil 2 avgustdagи “Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlар vazirligining 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish to‘g‘risida”gi PQ-4414-son [6], 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlар organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son [7] qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 5 martdagи “Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 128-son[8] qarori kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 1997-yil 1-oktabrda qabul qilingan bo‘lib, Jinoyat ijroiya qonunchiligi amal qilish hududi bo‘yicha O‘zbekiston yurisdiksiyasida amal qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksida II bob Mahkumlarning huquqiy holati belgilangan bo‘lib, mahkumlarning huquq va majburiyatlar muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda beriladi. Mahkumlar quyidagi:

**Axborot olish huquqi** ya’ni jazoni o’tash tartibi va shartlari to‘g‘risida, o‘z huquqlari va majburiyatlar haqida ma’lumot olish;

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma’muriyatiga, boshqa davlat organlariga murojaat qilish huquqiga ya’ni ularga shikoyat, taklif va ariza bilan murojaat qilish; Ariza, shikoyat va takliflariga murojaat etilgan tilda javob olish;

**Tarjimon va surdotarjimon xizmatidan foydalanish** ya’ni tushuntirish berish va yozishmalar olib borishda hamda zarur hollarda tarjimon ko’magidan foydalanishi mumkin;

**O’quv, badiiy va axborot materiallaridan foydalanish;**

**Tibbiy yordam olish,** ya’ni, sog‘liqni saqlash, shu bilan birga tibbiy xulosaga ko’ra ambulatoriya-poliklinika hamda statsionar sharoitda tibbiy xizmatdan foydalanish;

**Ishdan bo‘sh vaqtda toza havoda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish;**

**Psixologik yordam olish,** ya’ni, Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlarning o‘zining roziligi bilangina, jazoni ijro etish muassasidagi psixologik xizmat ko’rsatuvchi xodimlari psixologik tadbirlarni o’tkazishi mumkin;

**Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq mahkumlar xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo‘lish,** dam olish, ta’tilga chiqish hamda mehnatga haq to’lanishi;

**Pensiya hamda ijtimoiy ta‘minot olish;**

**Mahkum ajnabiy fuqarolar diplomatiya vakolatxonalari bilan aloqa qilib turish;** Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar saylovlarda qatnashish;

**Yuridik yordam olish;**

**Mahkumlarning shaxsiy xavfsizligi huquqi;**

**Vijdon erkinligi huquqlari Jinoyat ijroiya kodeksida belgilangan hisoblanadi.**

O‘zbekistonda 54 ta jazoni o‘tash muassasasi mavjud, ulardan 18 tasi yopiq turdag'i, 25 tasi koloniylar va 11 tasi tergov hibsxonalar. II Vning ma'lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda 22 mingdan ziyod mahkumlar, ularning 7 mingdan ortig‘i manzil-koloniyalarda, 14 mingdan ortig‘i yopiq turdag'i koloniyalarda jazo muddatini o‘tamoqda [9].

Bundan tashqari Jinoyat ijroiya kodeksining yangi taklif qilinayotgan tahririda «Jinoyat ijroiya kodeksi» nomini «Jazolarni ijro etish kodeksi» deb, o‘zgartirish bilan birgalikda «Mahkumlarning huquqiy holati» deb nomlangan ikkinchi bobiga bir qator o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritilmoqda. Jumladan, mahkumlarning ta’lim olish huquqi, hafvsiz mehnat sharoitiga ega bo‘lish huquqi va tushuntirish berish huquqlari kengaytirilmoqda.

**Mahkumlar huquqlarini takomillashtirishda quyidagi takliflarni beramiz:**

jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan mahkumlarni ish bilan bandligini ta’minalash bo‘yicha maxsus komissiya tashkil qilish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etiladigan mahkumlarga qisqa muddatda zamonaviy kasb-hunarni o‘rgatish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan mahkumlarni ish bilan ta’milagan tadbirkorlarga imkoniyatlar yaratish;

mahkumlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatni amalga oshirish hamda muvofiqlashtirish.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jazoni ijro etish muassasalarida mehnatga layoqatli shaxslarni ish bilan ta’minalash, davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda. Bunday shaxslarni kasbga o‘rgatish ertaga ular tomonidan takroriy jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi” [10] –deb ta’kidlaganlari, mamlakatimizda jazo o‘tayotgan shaxslarni axloqan tuzatish, ular tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng qamrovli amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin namunasi bo‘lib hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ахмедов Х.Э. Маъмурий назорат остидаги шахсларга оид профилактик чора-тадбирларни такомillashtiriш: Юрид. фан. бўйича фал-а д-ри. ... дис. автореф. – Т., 2022. – Б. 5.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 30 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексига маҳкумларнинг хукуқлари ва қонуний манбаатлари ишончли ҳимоя килинишини таъминлашга қаратилган ўзгартиш ва

7 – ТОМ 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 625-сон қонуни // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.07.2020 й., 03/20/625/1007-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартағи “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши қурашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон фармони // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 августдаги “Ички ишлар органларининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлган жазоларни ижро этиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3200-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.04.2021 й., 06/21/6218/0398-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 ноябрдаги “Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4006-сон қарори // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги “Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг 19-сон ихтисослаштирилган жазони ижро этиш колониясини тутатиш тўғрисида”ги ПҚ-4414-сон қарори // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.08.2019 й., 07/19/4414/3510-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши қурашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон қарори // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.04.2021 й., 07/21/5050/0280-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 5 мартағи “Озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ жазоларни ижро этиш муассасаларининг фаолияти самарадорлигини таъминлаш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги 128-сон қарори // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.03.2020 й., 09/20/128/0261-сон.

9. Д.М. Усмонов Озодликдан маҳрум этиш жойларида инсон хуқуқларини таъминлаш: Ўзбекистон тажрибаси: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (2022 йил 25 март). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2022. – 100 б.

10. Мирзиёев Ш.М. Асосий мақсад – аҳолининг тинч ва осойишта ҳётини таъминлаш // Халқ сўзи. – 2019. – 11 янв.

11. ўғли Насиров, Иззатилла Суннат. "Рецидив жиноятчиликнинг криминологик тавсифи." *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* (2022): 364-380.

12. Nasirov, I. "Typology of women released from penal jurisdiction." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.4 (2023): 219-224.